Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

JADID SHIFOKORI MIRZO SIROJ HAKIM VA UNING ILMIY FAOLIYATI

Guljaxon Turg‘unpulatova
TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari
tarixi kafedrasi 2-bosqich talabasi
Elektron manzil: guljaxonturgunpulatova@gmail.com
Tel: +998991916817

Mahliyo Turdixo‘jayeva
Ilmiy rahbar:
Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasi
kata o‘qituvchi t.f.f.d. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.24110778

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro jadidchilik harakatining ma’rifatparvar vakillaridan biri bo‘lgan Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriyning hayoti, ilmiy-ma’rifiy va tibbiy faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Siroj Hakimning zamonaviy tibbiyotga bo‘lgan qiziqishi, xorijiy mamlakatlarga qilgan safarlari davomida olgan bilim va taassurotlari hamda ularni Buxoro ijtimoiy-madaniy muhitiga tatbiq etishga bo‘lgan intilishi yoritiladi. Shuningdek, uning tibbiyot, sog‘liqni saqlash va gigiyena masalalarini targ‘ib qilishdagi faoliyati, matbuotdagi chiqishlari hamda “Tuhfai ahli Buxoro” asarining ilmiy-ma’rifiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqolada Siroj Hakim qarashlarida ilm-fan, zamonaviy ta’lim va tibbiyotning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ochib beriladi. Uning Sharq va G‘arb tajribalarini o‘rganishi hamda zamonaviy bilimlarni Buxoro sharoitida qo‘llashga intilishi jadidchilikning amaliy-ma’rifiy yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari Mirzo Siroj Hakimning Buxoro jadidchilik harakati va XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tibbiyot hamda ma’rifat tarixidagi o‘rnini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Mirzo Siroj Hakim, Buxoro jadidchiligi, tibbiyot, ilm-fan, ma’rifatparvarlik, zamonaviy tibbiyot, sog‘liqni saqlash, gigiyena, “Tuhfai ahli Buxoro”, “Buxoroi Sharif”, “Aql”, “Yod bod” sayohatnoma.

XX asr boshlarida Turkiston hududida sodir bo‘lgan eng muhim voqealardan biri, ma’rifat uchun kurash, xususan, Buxoro amirligida jadidchilik harakati keng rivojlanishi bo‘ldi. Mazkur jadidchilik harakati vakillari ta’lim tizimini isloh qilish, yangi usuldagi maktablarni rivojlantirish, ilm-ma’rifatni ommalashtirish, adabiyot va matbuotni taraqqiy ettirish hamda jamiyatning madaniy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirishga intildilar. Xalqni ilm va ma’rifatga chorlash, ijtimoiy ongni uyg‘otish jadidlarning asosiy maqsadiga aylandi. Jadidchilik harakatining faol namoyandalaridan biri, “Yosh buxoroliklar” harakati a’zosi, savdogar va sayyoh hamda shifokor Mirzo Siroj Hakim edi. U 1877-yilning 23-oktabrida Buxoro o‘lkasidagi Ismoilxo‘ja mahallasida savdogarlik hamda sarroflik bilan shug‘ullanuvchi oilada tavallud

topgan[1]. Otasi Hoji Abdurrauf Mirzoxurd Buxoroning boy va nufuzli savdogarlaridan bo‘lgan. U o‘g‘lining puxta ta’lim olishi va kelajakda oilaviy faoliyatni davom ettirishi uchun qo‘llab-quvvatlagan va bilim olishi uchun barcha zaruriy sharoitlarni yaratib bergan. Shu sababli Sirojiddinda ham yoshligidan ilm-fan va san’atga nisbatan qiziqish kuchli bo‘lgan. Sirojiddin dastlab maktab va madrasa ta’limini olgan. U ustozlari rahbarligida axloq, adabiyot, arifmetika, geografiya va matematika hamda tarix kabi fanlarni o‘rgangan. Shuningdek, til o‘rganishga ham qiziqishi kuchli bo‘lgan va arab, fors, turkiy, rus va fransuz tillarini egallashga intilgan. Yoshligidan fors tilini yaxshi o‘zlashtirgan, arab tili hamda musulmon huquqi ya’ni fiqh bo‘yicha bilim olgan. Bundan tashqari, Buxorodagi rus-tuzem maktablaridan birida tahsil olgani va fransuz tilidan xususiy saboq olgani qayd etiladi. Uning yoshligidan bilimga chanqoqligi va barcha sohani puxta o‘rgangani keyingi ilmiy, ma’rifiy va ijtimoiy faoliyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan[2]. Shu bilan birga, u she’riyatga mehr qo‘ydi, uning forsiy she’rlari Buxorodagi adabiy doira tomonidan yaxshi kutib olindi. Voyaga yetkach dastlabki faoliyatini otasining kichik bir sarroflik do‘konida boshlab, keyinchalik o‘zi mustaqil ravishda paxta savdosi bilan shug‘ullangan. Mirzo Siroj yoshligidan she’riyatga ham qiziqish bildirgan. U fors tilida she’rlar yozgan va uning ijodiy faoliyati Buxoroning adabiy muhitida ijobiy qabul qilingan. Voyaga yetgach, dastlab otasining sarroflik do‘konida faoliyat yuritgan. Keyinchalik esa mustaqil ravishda savdo ishlari bilan shug‘ullanib, paxta savdosini yo‘lga qo‘ygan[3].

Savdo bilan bog‘liq faoliyati natijasida Marg‘ilon, Andijon, Jizzax, Toshkent, Chimkent va Jambul kabi shaharlarga safar qilib, mahalliy aholining turmush tarzi hamda hududlardagi xo‘jalik faoliyatni kuzatgan. Mirzo Sirojning dunyoqarashi shakllanishida Buxoroning ilg‘or ziyolilari bilan aloqalari ham muhim o‘rin tutgan. Sadriddin Ayniy va Mirzo Abduvohid Munzimning tavsiyasi orqali Sadri Ziyo xonadonida Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” asari bilan tanishgan. Shuningdek, Qori Rahmatullohi Vozehning “Savoneh ul-masolik va farosix ul-mamolik” (“Yo‘llarning qulayliklari va mamlakatlarning masofalari”) asarini mutolaa qilgan. Savdogarlar va sayohatchilardan Rossiya imperiyasi, Usmonli davlati, Eron, Hindiston, Afg‘oniston hamda Yevropa mamlakatlari haqida eshitgan ma’lumotlari uning dunyoqarashini yanada kengaytirgan. Mazkur omillar Mirzo Sirojda xorijiy mamlakatlarni ko‘rish va ularning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan bevosita tanishish istagini kuchaytirgan[4]. Mirzo Siroj 1902-1909-yillarda Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida, xususan, Avstriya, Vengriya, Bolgariya, Serbiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya, Rossiya, Polsha va Eron kabi Sharq mamlakatlarida savdo qilgan.

Mirzo Siroj 1902-yilning iyun oyida Buxoro shahrida uchrashgan Avstriya diyorining shahzodasi bergan taklifni bajarish uchun Yevropaga sayohatini boshlaydi va bu sayohat olti oy davom etadi. Sayohat turkman cho‘llaridan boshlanadi. Cho‘l orqali Krasnovodskka, u yerdan so‘ng esa Kaspiy dengizi bo‘ylab Boku shahriga boradi. Boku shahridan o‘tgandan so‘ng Tiflis va Batumiga boradi. Qora dengiz orqali Turkiyaga kelgach, Samsun va Istanbul shaharlarini aylanib chiqadi[5]. Unga til bilish turli xalqlarning

[1] Садулаев С. Ҳ. Масъалаҳои маорифпарварӣ-ислоҳотчигӣ ва рушди илму фарҳанг дар таълимоти Мирзо Сирочи Ҳаким: диссертация. – Душанбе, 2024. – Б. 6.
[2] Rizoev, Sh. Kh. “Bukhara and the World through the Views of Jadid and Traveler Mirzo Sirodjiddin Hakim.” Journal of Russian History, 2023, vol. 22, no. 2, P. 225.
[3] Mirzo Sirojiddin Hakim. “Tuhafi ahli Buxoro”. – Dushanbe: Adib, 1992. – B. 4.
[4] O‘sha manba. – B. 11–12.
[5] Isoqova M. Mirzo Sirojiddin – yosh ma’rifatparvar. – Toshkent, – B. 1–2.

ilmiy va madaniy tajribasini vositachilarsiz o‘rganish imkonini bergan. Shu jihatdan ham u Buxoro jadid muhitida Sharq va G‘arb bilimlarini bog‘lovchi ziyoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Mirzo Sirojning keying safari 1903-yilning mart oyida boshlanadi. Bu sayohatida u Eronning ko‘plab shaharlariga sayohat qiladi. Xususan Mashhad, Nishopur, Sabzavor shaharlarida bo‘ladi. Sayohati 1905-yil 16-iyunga qadar davom etadi. Birgina Sabzavor shahrining o‘zida sakkiz oy davomida bo‘ladi. U Sabzavor shahri haqida shunday deydi: “Sabzavor Xurosonning qudratli va obod shaharlaridan biridir[6].” Sabzavorda bug‘doy, arpa, paxta ko‘p, paxta va jun savdosi bilan shug‘ullanuvchi savdogarlar yaxshi foyda olishgan. Sabzavor paxtasi Xurosonning boshqa shaharlaridagi paxtalarga nisbatan juda serhosil bo‘lgan. Eronning yan bir boshqa shahri Mashhadda esa Mirzo Siroj savdo bilan shug‘ullanishini takidlaydi: “Mashhadda ko‘proq sayr qildim, oxiri zerikib ham ketdim va bir ish bilan shug‘ullanishim kerakligini angladim. O‘zimdagi pul, Qo‘qondagi tijorat mollari va Xitoy bankining biletlari va boshqalarini keltirib, bu yerda arzon bo‘lgan paxta va terilarni sotib oldim, olgan narsalarimni Sabzavor, Nishopur va boshqa hududdan kelgan tijoratchilarga berdim, shu bahona Nishopurga ham borib sayr qildim”[7].

Uning tijorat tajribasi ham turli mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini bevosita kuzatishiga imkon bergan. Bu esa uning keyinchalik Buxoro taraqqiyotini boshqa jamiyatlar tajribasi bilan qiyoslashiga zamin yaratgan deb hisoblayman.

Mirzo Sirojning uchinchi safari 1905-yilning iyul oyidan boshlab to 1909-yilning oxiriga qadar davom etadi va u bu safargi sayohatlari Eron va Afg‘oniston hamda Hindistonning bir qancha shaharlarida bo‘ladi. Afg‘onistonda bo‘lgan paytlarida josuslikda ayblanib, bir yil qamoqda saqlanadi va keyinchalik Afg‘oniston amiri Habibulloxon tomonidan oqlanadi. Shundan so‘ng uning keyingi yillari Eronda o‘tadi. Xususan, Mirzo Hoji Bobo Afshor Yevropaga tibbiyot o‘rganish uchun yuborilgan dastlabki talabalar qatorida bo‘lgan. Keyinchalik Amir Kabir tomonidan Dar ul-Fununning tashkil etilishi Eronda zamonaviy tibbiy ta’lim rivojida muhim bosqich bo‘ldi[8]. Mirzo Siroj 1905–1911-yillar davomida Eronda sayohat qilayotgan vaqtida Eron inqilobining guvohiga aylanadi. Sayohati davomida Eronda bilim olishga ham kirishadi va 1903-yilda u mashhur Tehron shahridagi tibbiyot kollejiga, ya’ni hozirgi Tehron tibbiyot universiteti negizidagi tibbiyot ta’lim muassasasiga o‘qishga kirgan. Ta’limni muvaffaqiyatli tamomlagach hattoki ushbu o‘quv dargohida o‘qituvchilik faoliyatini ham olib bordi. Shu bilan birgalikda, Mozandaron viloyatidagi kasalxonalardan birida shifokor sifatida ham faoliyat olib bordi. Tibbiyot sohasidagi faoliyati va amaliy tajribasi natijasida Mirzo Siroj Eronda “Doktor Mirxon” nomi bilan yurt orasida tanilgan. Keyinchalik uning kasbiy faoliyati haqidagi xabarlar Afg‘oniston amiri Habibullaxonga ham yetib bordi. Amirning taklifiga binoan Mirzo Siroj Afg‘onistonga borib, u yerda shifokorlik faoliyatini davom ettirgan. Afg‘onistonda u “Doktor Sobir” nomi bilan faoliyat yuritgan va shu nom ostida ham tanilgan[9]. Mirzo Sirojiddin Hakim Tehrondagi Amerika tibbiyot kollejida tahsil olgan, keyinchalik esa Shveysariyaning Bern universiteti tibbiyot fakultetida ham o‘qigan. Bu uning Sharq va G‘arb tibbiyot maktablari bilan bog‘langanini ko‘rsatadi[10].1909-yilda Buxoroga qaytgach, o‘zining tibbiy bilimlarini

[6] Mirzo Sirojiddin Hakim. Tuhafi ahli Buxoro. – Dushanbe: Irfon, 1984. – B. 103.
[7] Mirzo Sirojiddin Hakim. Tuhafi ahli Buxoro. – Dushanbe: Adib, 1992. – B.105.
[8] “اولین پزشکان ایرانی چطور جای حکیمباشی‌ها را گرفتند؟” // Mashregh News. – 18 Esfand 1398 [8 March 2020]. – №1049572.
[9] Рўзиева Т.Ш. Мирзо Сирожиддин Ҳаким ҳаёти ва илмий фаолияти // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. 2026. №3. – Б. 230.
[10] “Siroj Hakim” // Qomus.INFO. – Elektron manba.

amaliyotga tatbiq eta boshlagan[11]. Vataniga qaytib kelgan Mirzo Siroj Buhoro shahrida Yevropa tibbiyoti asosidagi kasalxona tashkil qilib, zamonaviy davolash usullarini joriy eta boshladi.

Mirzo Siroj Hakimning tibbiyot sohasidagi faoliyatining eng muhim bosqichlaridan biri 1910-yilda Buxoroda kasalxona ochishi bilan bog‘liq. U ushbu shifoxonada Yevropa tibbiyotida qo‘llanilgan davolash usullaridan foydalanishga harakat qilgan. Bu holat uning an’anaviy tibbiyot bilan cheklanib qolmay, zamonaviy tibbiy bilim va tajribalarni Buxoro jamiyatiga olib kirishga intilganini ko‘rsatadi. Bu uning zamonaviy tibbiy bilimlarni o‘zlashtirib, ularni Buxoro sharoitida qo‘llashga intilganini ko‘rsatadi. Mirzo Sirojning ilmiy-ma’rifiy faoliyati tibbiyot bilan cheklanmagan. U Buxoroning ilk kundalik forsiyzabon gazetalaridan birini tashkil etishda ishtirok etgan va gazetaning “Sog‘liqni saqlash” ruknini boshqargan. Ushbu ruknda gigiyena va tibbiyotga oid masalalarni yorituvchi maqolalar e’lon qilgan. Shu orqali u aholining tibbiy savodxonligini oshirish, sog‘liqni saqlash va gigiyena masalalariga e’tiborni kuchaytirishga xizmat qilgan[12]. Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilish asosida shuni aytish mumkinki, Mirzo Siroj Hakimning faoliyatida tibbiyot va ma’rifat bir-biridan ajralgan ikki yo‘nalish emas, balki yagona taraqqiyot konsepsiyasining tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. Uning zamonaviy tibbiyotga murojaat qilishi ham faqat davolash usullarini yangilash bilan cheklanmagan, balki jamiyatda ilmiy tafakkur va sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga qaratilgan. Ayniqsa, uning Eron va Yevropa tajribalarini Buxoro sharoiti bilan qiyoslashi jadidlarning islohotchilik qarashlari amaliy mazmunga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shifokorlik faoliyati bilan bir qatorda Mirzo Siroj adabiy ijod bilan ham shug‘ullangan. U fors-tojik va o‘zbek tillarida she’rlar yozib, nashr ettirgan. U tomonidan yozilgan “Tuhafi ahli Buxoro” asari alohida ahamiyatga ega. Mirzo Sirojiddin qilgan sayohatlari davomida o‘zi guvoh bo‘lgan va bevosita ishtirokchisiga aylangan voqea va hodisalar , shuningdek o‘z esdalik xotiralarini “Tuhafi ahli Buxoro” (“Buxoro ahlining tuhfalari”) yozib qoldiradi. Asarda muallifning xorijiy mamlakatlar haqidagi taassurotlari va kuzatuvlari muhim o‘rin egallaydi[13]. “Tuhfai ahli Buxoro” Mirzo Siroj Hakimning safar taassurotlari asosida yaratilgan muhim asarlardan biridir. Muallif asar orqali o‘zi ko‘rgan mamlakatlar, ularning hayoti va taraqqiyotiga oid kuzatuvlarini Buxoro ahliga yetkazishni maqsad qilgan. Asarda Buxoro hayoti bilan xorijiy mamlakatlardagi holatni qiyoslashga intilish ko‘zga tashlanadi. Mirzo Siroj “Tuhafi ahli Buxoro” asarida Buxorodagi ijtimoiy o‘zgarishlarda bilimli kishilarning roliga katta ahamiyat bergan. Uning qarashlarida bilimli insonlar jamiyatdagi o‘zgarishlarning muhim kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Asarga asosiy murojaat qilgan shaxslaridan biri yosh Buxoro amiri Said Olimxon bo‘lgan[14]. Muallifning sayohatlari davomida olgan taassurotlari uning dunyoqarashiga ham ta’sir ko‘rsatgan. U xorijiy mamlakatlarda mavjud bo‘lgan taraqqiyot, ilm-fan, ta’lim va madaniyatga e’tibor bilan qaraydi. Shu sababli “Tuhfai ahli Buxoro” asarida nafaqat sayohat taassurotlari, balki Buxoro jamiyatining rivojlanishi bilan bog‘liq qarashlar ham aks etadi[15]. Mirzo Siroj Hakimning asari Buxoro

[11] Rizoev, Sh. Kh. “Bukhara and the World through the Views of Jadid and Traveler Mirzo Sirodjiddin Hakim.” Journal of Russian History, 2023, vol. 22, no. 2, P. 225.

[12] O‘sha manba. — P. 225.
[13] Mirzo Sirojiddin Hakim. “Tuhafi ahli Buxoro”. – Dushanbe: Adib, 1992. – B. 11–12.
[14] Rizoev, Sh. Kh. “Bukhara and the World through the Views of Jadid and Traveler Mirzo Sirodjiddin Hakim.” Journal of Russian History, 2023, vol. 22, no. 2, P. 226.
[15] Himmatov R. “Mirzo Sirojiddin Hakimning Tuhfai ahli Buxoro asari xususida” // Modern Science and Research. 2024. Vol. 3. № 2. – P. 1–3.

tarixini, ayniqsa XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Buxoro ziyolilarining dunyoqarashini o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega.Shu sababli unda o‘sha davr mamlakatlari, shaharlar va ijtimoiy hayotiga oid muallifning bevosita qarashlarini uchratish mumkin. Asar Mirzo Siroj Hakimning dunyoqarashi va ma’rifatparvarlik qarashlarini anglash uchun muhim manba sifatida namoyon bo‘ladi[16]. Muallif asarni 1910-yilda yozib tugatadi. 1912-yilda esa asarni toshbosma nusxada Kogon shahridagi bosmaxonasda nashr qildiradi. Mirzo Siroj asarni fors tilida yozadi. “Tuhfai ahli Buxoro” asarining qo‘lyozmasi qimmatbaho Yevropa qog‘oziga yozilgan bo‘lib, 193 sahifadan iborat[17].

Mirzo Sirojiddin Kogonda nashr etilgan ilk tojik tilidagi “Buxoroi Sharif” gazetasining asoschilaridan biri bo‘lgan. Ushbu gazeta 1912-yildan boshlab ommaviy nashr qilingan. Ushbu gazeta Mirzo Muhyiddin bilan hamkorlikda tashkil etilgan va nashriyotga muharrir sifatida Mirjalol Yusufzoda tayinlangan. Gazeta dastlab haftada bir marta, keyinchalik esa haftada to‘rt marta nashr etilgan. Gazetaning faoliyati 1912-yil iyul oyiga qadar davom etadi. 1912-yil iyul oyidan boshlab esa “Turon” gazetasi chiqarila boshlangan[18]. Turon gazetasi dastlab haftasiga ikki marta nashr etilgan. 1912-yil sentyabr oyidan boshlab mustaqil gazeta sifatida faoliyatini davom ettiradi. Har ikki nashrning umumiy hajmi 2600 nusxani tashkil etgan. “Buxoroi Sharif” gazetasi so‘nggi nashri 153-soni bo‘ldi. Uning 1913-yilda nashr qilingan “Oyina” jurnalining 2-sonida masnaviy janrida yozilgan “Yod bod” she’ri nashr etiladi. Mirzo Sirojning maqola va she’rlari faqatgina o‘lkadagi gazetalarda nashr qilinishi bilan cheklanib qolmagan. Balki uning maqolalari Eronning “Navbahor” va “Tus” nashrlari, Turkistonning “Samarqand” gazetatalarida ham nashr qilingan edi.[19]. Mirzo Siroj Hakim faoliyatining o‘ziga xosligi shundaki, u shifokorlik bilimlarini matbuot orqali ommalashtirishga intilgan. Shu sababli uning jurnalistik faoliyatini tibbiy-ma’rifiy faoliyatining davomi sifatida baholash mumkin.

Mirzo Sirojning nashriyotdagi faoliyati uning kelajakda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Abdulqodir Muhyiddinov kabi jadid namoyandalari bilan munosabatda bo‘lishiga zamin yaratib berdi[20]. Mirzo Siroj o‘zining so‘nggi safariga otlanadi. Biroq yo‘l davomida sog‘lig‘i yomonlashgani sababli Eronga yetgach Buxoroga qaytgan. 1914-yil 17-yanvar oyida sil kasalligi bilan og‘rib vafot etdi. Mirzo Sirojning vafoti Buxoro jadidlarining ma’rifiy va adabiy muhitida katta yo‘qotish sifatida baholangan. “Oyina” jurnali muharriri Mahmudxo‘ja Behbudiy uning xotirasiga bag‘ishlab “Ziyoi alim” (“Achchiq yo‘qotish”) maqolasini e’lon qilgan. Shuningdek, Sadriddin Ayniy tomonidan Mirzo Siroj vafotiga bag‘ishlangan marsiya “Oyina” jurnalining 14-sonida ham chop etilgan[21].Mirzo Sirojiddin maqolalarida sog‘liqni saqlash, ilm-ma’rifat va zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilgan[22].Uning “Aql” maqolasida bilimni faqat kitobiy ta’lim bilan cheklamasdan, mutolaa, tinglash, o‘rganish, hayotiy tajriba va kasbiy faoliyat orqali shakllanishini ta’kidlashi uning qarashlari oddiy “maktab ochish” g‘oyasidan ancha keng bo‘lganini ko‘rsatadi[23].Mirzo Sirojning fikricha, jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri bilim va hunarni rivojlantirishdir. U Yevropa taraqqiyotini kuzatar ekan, Buxoro va boshqa musulmon jamiyatlari ham ilm-

[16]. O‘sha manba. – P. 3-6.
[17] Mirzo Sirojiddin Hakim. Tuhafi ahli Buxoro. Dushanbe: Adib, 1992. – B. 4–6.
[18] Isoqova M. “Mirzo Sirojiddin – yosh ma’rifatparvar” // Yuz.uz. – B. 2 – 3.
[19] Hakim Buxoriy (Mirzo Sirojiddin). Yod bod // Oyina. 1913. №2. – B. 22–23.
[20] Рўзиева Т.Ш. Мирзо Сирожиддин Ҳаким ҳаёти ва илмий фаолияти // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. 2026. №3. – Б.229 –230.
[21] “Ziyo‘i alim” // Oyina. Samarqand, 1914. №12. – B. 291–292.
[22] Ro‘ziyeva T. Mirzo Sirojiddin Hakimning Buxorodagi ijtimoiy jarayonlarda tutgan o‘rni va ilmiy faoliyati // O‘zMU xabarlari (ACTA NUUz). – 2025. – 1/7-son. – B. 32–34.
[23] Ҳаким Бухорий (Мирзо Сирож), “Ақл” // Oyina. – 1914. №16. – Б. 286–288.

fan, ta’lim va hunarga yetarlicha e’tibor qaratgan taqdirda rivojlanishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu sababli uning qarashlarida zamonaviy bilimlarni egallash, ta’limni takomillashtirish va amaliy fanlarni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi[24].

Mirzo Siroj Hakimning ilmiy-ma’rifiy qarashlarida tibbiyot ham jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning shifokorlik faoliyati, kasalxona tashkil etishi va gazeta orqali gigiyena hamda tibbiyot masalalarini targ‘ib qilishi Buxoroda zamonaviy tibbiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan amaliy harakatlardan biri edi. Shu jihatdan uning faoliyatini jadidchilikning amaliy-ma’rifiy yo‘nalishi doirasida baholash mumkin. Umuman olganda, Mirzo Siroj Hakimning ilmiy faoliyati uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchidan, zamonaviy tibbiy bilimlarni egallashi va shifokorlik amaliyoti; ikkinchidan, matbuot orqali tibbiyot, gigiyena va ma’rifat masalalarini targ‘ib qilishi; uchinchidan, sayohatlari asosida ilmiy-ma’rifiy va publitsistik asarlar yaratishi[25].

Xulosa qilib aytganda Mirzo Siroj faqatgina saydogar va sarrof emas, balki o‘z davrining ilmli, matonatli hamda ziyoli insoni edi. Uning faoliyati natijasida nafaqat ilm sohasi, balki tibbiyot va nashriyot sohalari ham ravnaq topdi. Mirzo Sirojning sa’y-harakatlari bilan Buhoro shahri ham zamonaviy Yevropa namunasidagi shifoxonaga ega bo‘ldi. Zamonining yoshlari esa uning maqola va she’rlari orqali qimmatbaho bilimlarga ega bo‘lishdi. Tadqiqot natijasida Mirzo Siroj Hakim tibbiyot sohasida zamonaviy tajribalarni Buxoro muhitiga olib kirishga intilgani, sog‘liqni saqlash va gigiyena masalalariga e’tibor qaratgani aniqlandi. Uning ilm-fan va ta’lim haqidagi qarashlarida dunyoviy bilimlarni egallash, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish va yoshlarni zamonaviy ta’limga yo‘naltirish muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, “Tuhafi ahli Buxoro” asari Mirzo Siroj Hakimning ilmiy-ma’rifiy qarashlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib, unda Buxoro hayoti xorijiy mamlakatlarning ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy taraqqiyoti bilan qiyosiy tahlil qilingan. Uning “Aql” va “Yod bod” kabi maqolalarida esa ilm, tafakkur, ta’lim va tarixiy xotiraning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilgari surilgan.Umuman, Mirzo Siroj Hakim faoliyati Buxoro jadidlarining ilm-fan, zamonaviy tibbiyot va ma’rifatni rivojlantirishga qaratilgan qarashlarini aks ettiradi. Uning ilmiy va ma’rifiy merosi Buxorodagi siyosiy jarayonlarini hamda jadidchilik harakatining ilmiy-tibbiy yo‘nalishini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzo Sirojiddin Hakim. “Tuhafi ahli Buxoro”. – Dushanbe: Adib, 1992. – 272. b.
2. Рўзиева Т.Ш. Мирзо Сирожиддин Ҳаким ҳаёти ва илмий фаолияти // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. 2026. – 174 – 179.b.
3. Rizoev, Sh. Kh. “Bukhara and the World through the Views of Jadid and Traveler Mirzo Sirodjiddin Hakim.” Journal of Russian History, – 2023. – Vol. 22. – No.2. – DOI: 10.22363/2312-8674-2023-22-2-223-232. 223 – 232. b.
4. Ҳаким Бухорий (Мирзо Сирож). «Ақл» // Oyina. – 1914. – №16.
5. Ҳаким Бухорий (Мирзо Сирож). «Ёд бод» // Oyina. – 1913. – №2.
6. Himmatov, R. “Mirzo Sirojiddin Hakimning Tuhfai ahli Buxoro asari xususida” // Modern Science and Research. – 2024. – Vol. 3.– 198 – 203. b.

[24] Rizoev, Sh. Kh. “Bukhara and the World through the Views of Jadid and Traveler Mirzo Sirodjiddin Hakim.” Journal of Russian History, 2023, vol. 22, no. 2, P. 228.
[25] O’sha manba. – P. 225.

7. Mirzo Sirojiddini Hakim. Tuhafi ahli Buxoro. – Dushanbe: Irfon, 1984. – 193. b.
8. “Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriy” // Jadid.uz. – Elektron manba. https://jadid.uz/
9. “Old Doctors of Isfahan” // IR Medline – Iran Medical Sciences Gateway. – Elektron manba. «اولین پزشکان ایرانی چطور جای حکیم‌باشی‌ها را گرفتند؟» // Mashregh News. – 18 Esfand 1398 [8 March 2020]. – №1049572. https://www.mashreghnews.ir/
10. “Ziyo‘i alim” // Oyina. Samarqand,1914. https://buxoromanba.uz/
11. Isoqova M. “Mirzo Sirojiddin Hakim – yosh ma’rifatparvar” . https://yuz.uz/uz
12. Ro‘ziyeva T. Mirzo Sirojiddin Hakimning Buxorodagi ijtimoiy jarayonlarda tutgan o‘rni va ilmiy faoliyati // O‘zMU xabarlari (ACTA NUUz). – 2025. – 1/7-son. – 32. b.
13. Садулаев С. Ҳ. Масъалаҳои маорифпарварӣ-ислоҳотчигӣ ва рушди илму фарҳанг дар таълимоти Мирзо Сирочи Ҳаким: диссертация. – Душанбе, 2024. – 167.с.